UO‘K 821.512.133

TURKIY QAHRAMON ALP ER TO‘NGANING “AVESTO”DAGI TALQINI

M.J. Ismonaliyeva

Maqolada “Avesto” kitobi turkiy qahramonlarning mifologik talqinlari keltirilgan ilk manba sifatida o‘rganilgan. Tahlillar turkiy davlatchilik asoschisi Alp Er To‘nga “Avesto”da salbiy obraz bo‘lgani, Axrimanning xizmatchisi sanalib, mifik tasavvurlar natijasida yaratilganini ko‘rsatadi. Bu Eron va Turon o‘rtasidagi siyosiy nizolar, e’tiqodiy farqlilik bilan bog‘liq jarayon ekanligi aniqlanib, turkiy qahramonlarning mifologik tasvirlariga xos jihatlar ochib berildi.

Kalit so‘zlar: *“Avesto”, mifologik talqin, Alp Er To‘nga, Franhrasyan, Turon qahramonlari, Yashtlar, Huvarno.*

В статье «Авеста» рассматривается как один из ранних источников мифологической интерпретации образов тюркских героев. Анализируется отрицательное изображение Алп Эр Тонги, считающегося основоположником тюркской государственности, который представлен как слуга Аримана. Предполагается, что подобная трактовка обусловлена политическими противоречиями и различиями в верованиях Ирана и Турана. Выявляются характерные особенности мифологического изображения туранских героев в «Авесте».

Ключевые слова: *«Авеста», мифологическая интерпретация, Алп Эр Тонга, Франхрасьян, туранские герои, Яшты, Хуварно.*

KIRISH

“Avesto” Eron va Turon xalqlarining diniy-mifologik hamda ijtimoiy-madaniy taraqqiyotini yorituvchi asosiy manbadir. Mustaqil davlatchilikni shakllantirish bosqichida ikki elat o‘rtasida yuzaga kelgan nizolar Markaziy Osiyoga yoyilib borayotgan zardushtiylik ta’limotiga ta’sir o‘tkazgan. Yangi dinning qo‘llab-quvvatlanmasligi yoki unga qarshi kurash muxolif tomonni devlar yoki axrimaniy xudolar xizmatkori sifatida anglanishiga olib kelgan. Natijada “Avesto”dagi turkiy qahramonlarning hokimiyat yoki g‘alaba uchun so‘ralgan istaklari zardushtiy ma’budalar – Advisura Anaxita, Osha tomonidan doimiy rad etiladi [1. B. 585]. Alp Er To‘nga esa “samarasiz harakat qilayotgan afsonaviy obraz”ga aylanadi [2. B. 517]. Tadqiqotda Alp Er To‘nganing turkiy xalqlar tafakkuridagi ilk adabiy qahramon sifatidagi talqinlari yoritiladi. Turkiy qahramonlarning ijtimoiy-madaniy kontekstdagi o‘rnidan kelib chiqqan holda diniy-mifologik tasvirlari umumbashariy yodgorlik matni asosida tahlil etiladi.

MATERIAL VA USULLAR

Maqolada qo‘yilgan muammoni yoritishda asosiy manba sifatida A.Mahkam tomonidan fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan “Avesto” [1] kitobi matnidan foydalanildi hamda ushbu manbada keltirilgan voqealar A.Firdavsiyning “Shohnoma” [3] asariga qiyosan o‘rganiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi [2], H.Homidiyning “Avestodan Shohnomaga” asari [4] va Q.Rajabovning “Alp Er To‘nga – Turon xoqoni” maqolasi [5] va boshqa adabiyotshunoslik tadqiqotlari qo‘shimcha ilmiy adabiyot sifatida xizmat qildi. Muammoni o‘rganishda mifologik tahlil, tarixiy-qiyosiy tahlil hamda semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali turkiy qahramonlarning adabiy-estetik tafakkurdagi o‘rni va Eron-Turon qarama-qarshiliklarining “Avesto”dagi ifodasi aniqlashtirildi.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Davlatchilik tushunchasining shakllanishi millatlarning tarixiy taraqqiyotidagi muhim bosqichdir. Tarqoq holdagi jamoalarni birlashtirish yoki muayyan hududlarni egallash natijasida yangi davlatlar yuzaga chiqadi va bunday jarayon rivojida qavm yoki elat ichidagi yetakchi inson – qahramonning paydo bo‘lishi asosiy omil sanaladi. Ya’ni “tarixni qahramon shaxsi yaratadi” [6. B. 122]. Madaniylashish jarayonlarini tekshirish, xususan, turkiy davlatchilik asoschilari, ularning adabiyotdagi ifodasini tadqiq etish badiiy-estetik tafakkur taraqqiyotini umumiy tarzda o‘rganishda dolzarb masaladir. Bunda tarixiy-diniy kitoblar zaruriy manba sanalib, “Avesto” Eron va Turon xalqlarining ilk qahramonlari kechmishidan hikoya qiluvchi ko‘hna obidalardan biridir.

“Avesto”da bir nechta turkiy qahramonlarning nomlari zikr etiladi. Ularning ichida Alp Er To‘nga eroniy shohlarning doimiy raqobatchisi va undan ilohiy kuchlar yordami bilan himoyalanish zarur bo‘lgan yovuz (kitobda u *Durujning – yovuz devning* yordamchisi va devsifat odam sifatida keltirilgan) kimsa timsolida tasvirlanadi. Kitobda Alp Er To‘nga Franhrasyan[1] nomi bilan atalib, bu so‘z “dahshat solguvchi yoxud qo‘rquv solguvchi odam” ma’nosini ifoda etadi [1. B. 585]. “Pahlaviy tilida “Frasyo‘v”, “Frasyo‘b” yoxud “Frasyo‘f”. Mashhur Turon shohi, Pashangning o‘g‘li. Navzarshoh zamonidan Kayxusrav saltanatiga dovur g‘oyat uzoq davom etgan Eron va Turon janglarining ishtirokchisi, asl pahlavon”, – deb izohlanadi [1. B. 585]. Ammo Alp Er To‘nga “Avesto”ning biror o‘rnida ijobiy qahramon sifatida tilga olinmaydi. Bu holat “Avesto”ning o‘zbek tildagi tarjimasida Al Er To‘nganing o‘z birodari va shoh Kovusning o‘g‘li Siyovushni o‘ldirish voqealari bilan bog‘liqligi aytilgan.

Ma’lumki, qadimgi insonlar dunyoqarashidagi yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi azaliy kurash “Avesto”da ham o‘z aksini topgan. Zardushtiylikka ko‘ra, oliy xudo Axura Mazda va uning yovuz raqibi Axriman murosasiz jang olib boradilar. “Avesto”da Alp Er To‘nga inson emas, balki Mazdaga qarshi turuvchi yovuz xudolarning devsifat xizmatkori sifatida talqin etilgan. Bu esa Alp Er To‘nga obrazi mifologik tafakkur bosqichidan shakllanib kelayotganligini ko‘rsatadi. Ba’zi tarixiy manbalarda Turk eli va uning ilk xoqoni (Alp Er To‘nga)ning kelib chiqishi Nuh alayhissalom qissasi bilan bog‘lanadi [7. B. 36–39]. “Avesto”da Alp Er To‘nga yer osti yoki devorlar orasida kun kechiruvchi ins-u jins kabi tasavvur etilgan. Jumladan, “Yasna”ning o‘n birinchi hotida Mazda tomonidan Zardushtga shunday buyruq beriladi: “Zudlik bilan jasoratli Humga go‘sht taqdim ayla, toki yer qa’rida, temir devor orasida yashovchi Afrosiyobni bir zarbada zanjirband qilgani kabi, seni ham band etmasin” [1. B. 115]. *Afrosiyob* – Alp Er To‘nganing forsiy nomidir. Bu nom ham pahlaviy tilidagi *frasyo‘v* so‘zi anglatgan ma’no bilan bog‘liqlikda izohlanadi. “Avesto”ning Goh va Yasnalar qismi “Yangi Avesto”ni tashkil etuvchi Vendidod va Yashtlardan asotiriy tushunchalarga boyligi bilan ajralib turadi. Alp Er To‘nga Yasnada keltirilgan voqeada Yashtlarda tasvirlangani kabi yovuz va qo‘rqmas shoh darajasiga ko‘tarilmagan. Yasna va Yashtlarning yaratilishidagi davriy oraliq e’tiborga olinsa, Alp Er To‘nga siymosi Eron va Turon elatlari badiiy tafakkurining ilk bosqichida ham mavjud bo‘lganligi, ammo keyingi ijtimoiy-madaniy rivojlanishlar barobarida eroniy qavmlarga qarshi kurash olib borgan Turon shohi sifatida talqin etila boshlangani ko‘rinadi [5. B. 115]. Biroq maqsadimiz “turkiy davlatchilik asoschi Alp Er To‘nga qachon yashagan?” degan savolga javob topish emas, balki uning turkiy xalqlar badiiy-estetik tafakkuridagi ilk adabiy qahramon sifatidagi talqinini ko‘rib chiqish bo‘lgani bois, ushbu jihatlarga kengroq to‘xtalishga harakat qilamiz.

“Yashtlar” “Avesto”ning to‘rtinchi daftari bo‘lib, u ilohlar va ilohiy kuchlarga bag‘ishlangan qasidalardan iborat. Yashtlarga kiruvchi qasidalarida Alp Er To‘nga o‘z maqsadlariga erishish uchun ma’budalarga iltijo qilayotgan, ammo istaklari rad etilib, “samarasiz harakat qilayotgan afsonaviy obraz sifatida namoyon bo‘ladi” [2. B. 517].

“Advisura Anaxita” qasidasida yigirmaga yaqin qahramon suv va hosildorlik ma’budasi Anaxitadan o‘z istaklarining ijobatini so‘raydi. Unga topinuvchilar orasida oliy iloh Axura Mazda ham bor. Ushbu qasida Alp Er To‘nga tasviri boshqa yashtlarga qaraganda batafsilroq berilganligi bilan qimmatlidir, shuningdek, unda yana bir nechta turkiy qahramonlarning ham Anaxita oldiga najot so‘rab kelishlari aks etgan. Ammo birorta ham turkiy qahramonning iltijosi va keltirgan qurbonliklari iloha tomonidan qabul qilinmasligi “Avesto” kitobi yaratilishida eronparastlik kayfiyatining ustuvor bo‘lganligini ko‘rsatadi.

“*Men kimlarning omolini ado etgumdir? E’tiqodli va iymonli kimsalarga bag‘ishlayman shodlik, bardam ruh!*” [1. B. 302] – deya so‘z boshlovchi Anaxita undan madad kutgan to‘rt topinuvchining istaklarini rad etadi. Ular asosan Duruj xizmatkorlari deb atalgan turonlik qahramonlar hamda yetti iqlimni kunpayakun aylashni xohlagan, “Shohnoma”da keltirilishicha, ming yil Eron xalqini qonxo‘rligi bilan asoratda

[1] “Avesto” kitobining fors tilidan o‘zbek tiliga A.Mahkam tomonidan qilingan tarjimasida ushbu nom uch xil shaklda uchraydi: Franhrasyan, Franhrasyon va Frangrasyan. Maqola matnida nom va atamalarning yozilishida bir xillikni saqlash uchun ulardan manbada eng faol qo‘llanilgani tanlab olindi.

saqlagan Aji Dahoka, ya'ni Zahhokdir. Turkiy qahramonlar istaklarining rad etilishini, avvalo, ularning Eron xalqi dunyoqarashida Zahhok darajasida tasavvur etilgani bilan ham izohlash mumkin.

Unga qurbonlik keltirdi yovuz Franhrasyan,
Halokatli jar yoqasida <…>
Va so'radi Ardvisura Anaxitadan:
"Baxshida qil menga shundayin omad,
O, qudratli, shafqatpesha Ardvisura,
Kim Xuvarno saltanatin sohibi bo'lay,
Vorkushaning orasida porlagan mudom,
Hozirda va kelajakda
Qo'shilgandir oriylarning mamlakatiga
Va Artaga e'tiqodli Spitamon Zardusht
Unga hamrohdir".
Bul omadni bermadi unga Ardvisura Anaxita
[1. B. 309].

Topinuvchining yovuz deya ta'kidlanishi, halokatli makondan turib iltijo qilishi iloha tomonidan istaklarining rad etilishiga sabab bo'ladi. Franhrasyan baxt va qudrat sohibi bo'lish uchun Huvarnoni qo'lga kiritishni xohlaydi, chunki, "Avesto"da keltirilishicha, unga egalik qilganlar oxir-oqibat shoh bo'ladilar. Qasidada Franhrasyan Huvarnoning doimiy oriylar mamlakatiga tegishli bo'lib kelganligi va unga Zardushtning hamroh ekanligidan g'azablanadi. Uning bu g'azabi "Huvarno" qasidasida yanada keskinlashadi. Unda keltirilishicha, Anaxitaga qilgan iltijolari rad etilgan Franhrasyan podshohlik timsoli bo'lgan Huvarnoni o'z kuchi bilan qo'lga kiritishga harakat qiladi:

Huvarnoni tutmoqchi bo'ldi
Tur Franhrasyan
Voruqash dengizidan,
Kiyimlarin yechib, yalang'och <…>
Yuzib bordi Huvarno tomon
Tur Franhrasyan.
Biroq Huvarno chekindi,
Nari ketdi undan Huvarno [1. B. 422–423].

Qahramon Huvarnoga erishish uchun uch karra Voruqash dengiziga sho'ng'iydi, ammo uning barcha harakatlari besamar ketadi. Ilohiy Huvarno Franhrasyan o'ziga egalik qilishini xohlamaydi. Buning natijasida qahramon Huvarnoga qarata turli haqoratli so'zlarni aytadi, unga erisha olmasligidan nadomat qiladi:

Zabardast tur Franhrasyan
Uchib keldi Voruqashdan <…>
Huvarnoni tutmoq
Menga mumkin emas,
Oriyoniy o'lkalarning
O'tib ketgan va kelajak
Podsholari hamda Zardusht
Sohib bo'lgan Huvarnoga
Yetolmayman [1. B. 423].

"Avesto"da aytilishicha, Franhrasyan hamma narsani vayron qilishni va bundan yaratuvchi Axura Mazda ozor chekishini xohlagan. Uning bu niyatlari esa eroniy xalqlarning asotiriy tasavvurlaridagi ajdarho podshoh, Zahhokning harakatlarini yodga soladi. Ushbu tasvirlardan Turon davlatchiligi asoschisi Franhrasyanni podshohlik uchun nomunosib shaxs sifatida ko'rsatish, "Avesto" yashtlaridagi asosiy g'oyalardan biri bo'lganligi anglashiladi.

"Osha" yashtida ham Franhrasyan nomi keltiriladi, ammo unda "Advisura Anaxita" va "Huvarno" qasidasidagi kabi o'z maqsadlariga erishishga harakat qilgan alohida shaxs sifatida emas, balki eroniy hukmdorlarning asosiy dushmani sifatida gavdalanadi. Jumladan, Xusrav shoh otasi Siyovush va sipohi Ahrarat o'limi uchun Franhrasyandan qasos olishda taqdir va baxt ilohasi – Oshadan madad so'raydi va uning muruvvatiga erishadi:

Xusrav keldi Osha qoshiga,
Duolar qildi <…>
O'tindi u Oshadan:
"Baxsh aylagil shunday omad,
Mehribon Osha <…>
Qasos olay turonlik botir
Franhrasyandan,
Makr bilan o'ldirilgan
Siyovahshan uchun
Va Narava qahramoni
Ahrarat uchun [1. B. 403].

Qasidada keltirilishicha, Franhrasyandan qasos olishni ilohiy Hum[2*] ham tilaydi, u yovuz Franhrasyanning qo'l-oyoqlarini bog'lab Xusrav qoshiga keltirish uchun ma'buda Oshadan omad baxsh etishini so'raydi. Humning ushbu o'tinchida "Yasna" daftarining o'n birinchi hotidagi Axura Mazdaning Zardushtga qilgan buyrug'i bilan bog'liqlikni ko'rish mumkin, ya'ni unda Afrosiyobni Hum zanjirband qilganligi aytiladi. "Huvarno" qasidasining so'nggi bandlarida ham Xusravning Franhrasyandan o'z qasosini olishi tas-

[2] Hum – "Avesto"da "huma", sanskrit tilida "savma". Muqaddas giyoh va undan olingan suyuqlikning nomi. Zardushtiylikning ibtidoiy pallasidan so'nggi davrlarigacha bu giyoh va uning sharbati mazdaparastlarning turli marosimlarida foydalanib kelingan. Zardushtiylar Hum suvi yoxud sharbatini o'limni qaytaruvchi vosita deb talqin qilishib, bu aqidaga alohida e'tiqod bilan qarashgan. Hum giyohlar podshohi, sarvari hisoblangan.

virlanadi. Demak, muqaddas “Avesto”da Alp Er To‘nga ilohiy madadkorlar yordami bilangina yo‘q qilinishi mumkin bo‘lgan qahramon sifatida gavdalangan.

G‘olib keldi hammadan hokim
Qaviy Xusrav:
Franhrasyan, Karsavazdani
Oyoq-qo‘lin mahkam bog‘ladi.
Makr bilan o‘ldirilgan
Siyovahshan – otasi uchun,
Naravida qahramoni
Ahrarat uchun
Qasos oldi u... [1. B. 427 – 428].

Alp Er To‘nga obrazi “Avesto”da alohida tarixiy shaxs va adabiy qahramon sifatida namoyon bo‘lgan. Kitobning eng qadimgi mifologik tasavvurlar asosida shakllanish bosqichidan tortib, keyingi madaniy rivojlanishlar davrida yaratilgan namunalarida ham uning nomi saqlanib qolgan va ma’lum darajada o‘zgarishlarga uchragan. Biroq “Avesto” kitobi turkiy qahramonlar haqida ma’lumot olishimiz mumkin bo‘lgan ilk manba bo‘lgani holda, unda turk alplarining qahramonlik sifatlariga deyarli o‘rin berilmagan. Bu holat, avvalo, “Avesto” tarixiy-madaniy manba sifatida eroniy hukmdorlarning rahnamoligida yaratilgani, shuningdek, Eron va Turon xalqi o‘rtasidagi uzoq vaqt davom etgan siyosiy nizolarning ayni shu davr insonlari ijtimoiy ongiga ta’siri bilan bog‘liq.

“Avesto”da Alp Er To‘ngadan tashqari yana bir nechta turkiy qahramonlarning nomlari uchraydi. Yashtlarda Tantryavnt, Peshona va Arjatasp kabi nomlar Durujga xizmat qiluvchi tur bahodirlari sifatida ko‘rsatilgan bo‘lsa, ayrim qahramonlar o‘z urug‘-nasabining nomi bilan ham ataladi.

Unga qurbonlik keltirdi Vosaq naslining
Yovqur erlari,
Hshatrosuqa tog‘larining oralig‘ida <…>
So‘radilar Ardvisura Anaxitadan:
“Baxshida et bizga shundayin omad,
O qudratli, shafqatpesha Ardvisura,
Matonatli Tus sipohin mag‘lub etaylik,
Oriyzamin lashkarlarin qilaylik tor-mor <…>
Bul istakni bajo etmadi
Ardvisura Anaxita [1. B. 312].

Yashtlarda eroniy qahramonlarning ham Turon sarkardalarini mag‘lub etish uchun ma’bud va ma’budalardan madad so‘rash sahnalari keltiriladi. Ammo turkiy qahramonlarning tilaklari rad etilgani holda, eroniylarning xohishlari qabul etilib, ilohlarning muruvvatiga noil bo‘lishadi. Masalan, “Shohnoma”ning Rustam va Kayxusravga bag‘ishlangan dostonlarida nomi ko‘p bor zikr etiluvchi Tus[3] “Avesto”da turonliklarning asosiy raqibi sifatida gavdalangan:

Unga qurbonlik keltirdi matonatli Tus
Mohir suvoriy <…>
Va so‘radi Advisura Anaxitadan:
“Baxshida et, shundayin omad,
O qudratli, shafqatpesha Ardvisura <…>
Vosaq naslin botirlari ustidan mutlaq
G‘olib bo‘layin,
Turonzamin qo‘shinlarin qirib tashlay <…>
Baxsh ayladi unga omad
Ardvisura Anaxita [1. B. 311 – 312].

Ayon bo‘lyaptiki, Eron va Turon o‘rtasidagi raqobat izlari “Avesto” ham ko‘rinadi. Qasidalarning bir nechtasida ikki elat qahramonlarining o‘zaro qarama-qarshiliklarini tasvirlash alohida o‘rinni egallaydi. Ammo ba’zi manbalarda “Eron va Turonning mifologik raqobati g‘oyasi Avestoda yo‘q. Afrosiyobni Eron shohlarining dushmani qilib ko‘rsatish g‘oyasi yozma adabiyotga birinchi bo‘lib Firdavsiy “Shohnoma”si orqali kirgan”ligi haqidagi fikrlar uchraydi [2. B. 517]. “Avesto”dagi Afrosiyob bilan bog‘liq voqealar tasviri esa ushbu fikrlarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Boisi, Eron davlatchiligi shakllanib ulgurgan bir paytda Turon zamini ham mustaqil davlat maqomiga ega bo‘lgan hamda Turon bahodirlarining qudratini ilohiy kuchlarning aralashuvi bilangina yakson qilish mumkin, deb tasavvur etilgan.

“Avesto”dagi ikki xalq qahramonlari o‘rtasidagi ziddiyat “Shohnoma”da ham o‘z ifodasini topgan [3. B. 688]. Firdavsiy Eron va Turonning kurash sahnalari tasvirini yaratishda aynan qadimiy kitob matnlariga tayangan: “...shoir turli mavridlarda “Zend Avesto” kitobini ko‘rganligini uqtiradi. Sharqshunos Bahromiy Firdavsiyning bir ustozi unga “Avesto”ning muxtasar bir nusxasini taqdim etganligini uqtirsa, mutarjim O.Chunakova sosoniylar davridagi zardushtiylar matnlariga asoslanib, “Shohnomayi pahlaviy” yaratilganligi va Firdavsiy uni o‘qiganligini ta’kidlagan” [4. B. 58]. Demak, Eron va Turonning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi raqobati qadimiy “Avesto” matni shaklanayotgan davrlarda ham mavjud bo‘lgan. Professor H.Homidiy “Avestodan Shohnomaga” nomli tadqiqotida zardushtiylik dinining O‘rta Osiyoga yoyilishi va bunda Eron va Turk xalqlari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan muhorabalar tafsilotini yoritib, Arjaspning o‘limi bilan Turonzaminda ham yangi mazdoparastlik dini yoyi-

[3] Hum – “Avesto”da “huma”, sanskrit tilida “savma”. Muqaddas giyoh va undan olingan suyuqlikning nomi. Zardushtiylikning ibtidoiy pallasidan so‘nggi davrlarigacha bu giyoh va uning sharbati mazdaparastlarning turli marosimlarida foydalanib kelingan. Zardushtiylar Hum suvi yoxud sharbatini o‘limni qaytaruvchi vosita deb talqin qilishib, bu aqidaga alohida e’tiqod bilan qarashgan. Hum giyohlar podshohi, sarvari hisoblangan.

la borgani haqidagi ma’lumotni keltiradi [4. B. 12]. “Avesto” matniga kiritilgan turkiy qahramonlar bilan bog‘liq lavhalar o‘z tarixiy asosiga ega bo‘lib, ularning ichida Alp Er To‘nga (Afrosiyob) markaziy o‘rinni egallaydi. “Avesto”dan keyin yaratilgan turkiy va eroniy manbalar, xususan, “Shohnoma”, “Qutadg‘u bilig”, “Devoni lug‘otit-turk” asarlarida ham Alp Er To‘nga nomi alohida tarixiy shaxs sifatida qayd etiladi, turkiy asarlarda uning Turon yurti asoschisi sifatidagi faoliyati e’tirof etiladi. Demak, o‘zaro kurashlarda yetakchilik qilgan, yurt himoyasi uchun bo‘lgan janglarda shuhrat qozongan shaxslar el orasida ulug‘langan, ularning nomi sekin-asta tarixiy-adabiy matnlardan joy olib borgan. Dastlab ularga atab kichik qasida va madhiyalar yaratilgan bo‘lsa, davrlar o‘tib bunday qahramonlar haqida yirik epik dostonlar kuylana boshlangan. Turkiy qahramonlarning tarixiy-adabiy manbalardagi talqinlarini o‘rganish, ularning ijtimoiy-madaniy voqealikdan folklor va yozma adabiyotga o‘tib borishi – o‘ziga xos evolyutsiyasini tadqiq etish, turkiy xalqlar badiiy tafakkurining jahon adabiyotidagi o‘rnini aniqlash va mustahkamlashga xizmat qiladi. Zero, adabiy qahramon o‘zi mansub bo‘lgan davr xususiyatlarini ifoda etadi, millat va elat tafakkurining asrlar davomida shakllanishi va keyingi avlodlarga o‘tib borishida vositachi sanaladi.

XULOSA

Jahon adabiyotshunosligida qahramon tushunchasining taraqqiyoti, turli davrlardagi tasniflari muntazam tadqiq etib kelinadiki, bu uning badiiy-estetik tafakkur rivojidagi umumiy va farqli jihatlarini aniqlashda yetakchi masalalardan biri ekanligi bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan “Avesto” kitobi Sharq dunyosining diniy, ijtimoiy-madaniy sivilizatsiyasini yorituvchi, ayni paytda, Eron va Turon xalqlarining adabiy qahramonlari haqida hikoya qiluvchi ilk manba sanaladi. “Avesto”da qahramonlarning ijobiy yoki salbiy obraz sifatida ifodalanishida kitob mazmuniga singdirib yuborilgan davlatchilik g‘oyalari hamda voqelikning siyosiy, diniy holatdan kelib chiqib baholanishi asosiy mezonga aylangan. Shu bois o‘z mustaqil davlatchiligi va diniy e’tiqodiga ega bo‘lgan Turon yurti asoschisi Alp Er To‘nga “Avesto”da salbiy qahramon sifatida gavdalantiriladi. Uning Voruqash dengizidagi harakatlari natijasiz tugashi, shohlik ramzi bo‘lgan Huvarnoga erisha olmasligi va Xusrav shoh tomonidan jazolanishi Alp Er To‘ngani “samarasiz harakat qilayotgan afsonaviy obraz” sifatida tushunilishga olib keladi. Zardushtiylik ilohalari tomonidan boshqa turkiy qahramonlarning ham istaklari rad etilib, bu Eron va Turon o‘rtasida diniy nizolar va siyosiy raqobatning “Avesto”ga ta’siri sanaladi. Qadimgi mif va folklor asarlaridagi turkiy qahramonlar, xususan, Turon davlatchiligi asoschisi Alp Er To‘nga obrazi talqinlarini o‘rganish o‘zbek adabiyotshunosligi rivoji uchun zaruriy masalalardan bo‘lib, zero, xalq asl qahramonlarinigina asrlar davomida badiiy tafakkurida saqlab qoladi, ular haqida qasidalar, dostonlar kuylaydi.

Adabiyotlar:

1. Авесто / Таржимон А.Маҳкам. – Тошкент: “Таълим” нашриёти, 2021. – 640 б.

2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. XII жилдли. 1-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2000. – 704 б.

3. *Фирдавсий А.* Шоҳнома. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – 688 б.

4. *Ҳомидий Ҳ.* Авестодан Шоҳномага. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 320 б.

5. *Ражабов Қ.* Алп Эр Тўнга – Турон хоқони // Шарқ юлдузи, 2013. – №4. – Б.107–121.

6. *Carlyle T*. On heroes, hero – worship and the heroic in history. – New Haven and London: Yale University Press, 2013. – 359 p.

7. *Мирзо Улуғбек*. Тўрт улус тарихи. – Тошкент: Чўлпон, 1994. – 351 б.

8. *Маҳмад Кошғарий*. Девони луғотит турк. III жилдли, I жилд. – Тошкент: Фан, 1960. – 497 б.

9. *Yusuf Hos Hojib*. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: Bayoz, 2014. – 160 b.

10. *Алишер Навоий*. Тарихи мулки ажам. / Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик, 16-том. – Тошкент: Фан, 2000. – 329 б.

11. *Заҳириддин Муҳаммад Бобур.* Бобурнома. – Тошкент: Ўқитувчи, 2008. – 288 б.

12. *Восифий З.М*. Бадоеъ ул вақое. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 216 б.

13. *Абулғозий Баҳодирхон*. Шажарайи турк. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – 192 б.

14. *Турдимов Ш*. Этнос ва эпос. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – 96 б.

15. *Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М.* Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 406 б.

INTERPRETATION OF THE TURKIC HERO ALP ER TUNGA IN THE "AVESTA"

Mahbuba J. Ismonaliyeva[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2026. 5(97). 68-74.

[1]Namangan State University, Namangan, 160107, str. Bobur shokh, 161, (Uzbekistan). E-mail: info@namdu.uz

Key words: "Avesta", mythological interpretation, Alp Er Tunga, Franhrasyan, Turanian heroes, Yashts, Huvarno.

This study is examined the mythological interpretation of Turkic heroes, particularly Alp Er Tunga, in the sacred Avesta from the perspective of literary studies. It aims to identify the main features of Alp Er Tunga's representation in the Avesta, examine the possible reasons for his portrayal as a negative figure, and analyze its connection with the religious and political conflicts between Iran and Turan. The study also considers the role of religious and mythological conceptions in shaping the interpretation of Turkic heroic figures.

The Avesta is an important religious and mythological source for studying the worldview, socio-cultural life, and mythological conceptions of the peoples associated with ancient Iran and Turan. Particular attention is given to the plots and motifs related to Alp Er Tunga, especially his appeals to divine powers. The rejection of these appeals in certain episodes of the Yashts suggests that he is represented within the Avesta as a mythological hero who does not receive support from divine forces. This interpretation is considered in relation to the religious and political confrontation between Iran and Turan.

The study is based primarily on A. Mahkam's Uzbek translation of the Avesta. Additional materials include Ferdowsi's Shahnameh, the National Encyclopedia of Uzbekistan, H. Hamidi's scholarly work, K. Rajabov's article, and other relevant literary studies. The research employs mythological, historical-comparative, and semantic approaches to examine the interpretation of Turkic heroic figures, the transformation of Alp Er Tunga's character across different literary traditions, and the artistic representation of the Iran – Turan confrontation.

The findings indicate that Alp Er Tunga's representation in the Avesta differs in certain respects from his image in later Turkic and Persian literary traditions. The rejection of his appeals to divine powers gives his character a negative semantic connotation within the Avesta's mythological system, which may be associated with the religious and political conflicts between Iran and Turan. At the same time, his reinterpretation in subsequent literary traditions demonstrates the transformation of Alp Er Tunga from a mythological figure into a historical-literary hero. The possible connections among Franhrasyan, Afrasiyab, and Alp Er Tunga provide an important basis for comparative literary research.

In conclusion, the Avesta is not only a religious and mythological source but also a significant literary monument reflecting the worldview, mythological conceptions, and artistic thought of ancient peoples. The study of Alp Er Tunga's representation from the mythopoetic period onward contributes to a deeper understanding of the formation, transformation, and poetic development of Turkic heroic figures within the broader context of literary and aesthetic thought.

References:

1. Авесто [Avesta]. (2021). / Translated by A.Mahkam. Tashkent: "Ta'lim" publishing house.

2. (2000). O'zbekiston milliy entsiklopediyasi [National encyclopedia of Uzbekistan]. In 12 volumes. Vol. 1. Tashkent: "National Encyclopedia of Uzbekistan" State Scientific Publishing House.

3. Ferdowsi, A. (1984). *Shohnoma* [Shahnameh]. Tashkent: Publishing House of Literature and Art.

4. Hamidi, H. (2007). *Avestodan Shahnomaga* [From Avesta to Shahnameh]. Tashkent: Sharq.

5. Rajabov, K. (2013). Alp Er To'nga – Turk xoqoni [Alp Er Tunga –Khagan of Turan]. *Sharq Yulduzi*. No 4. Pp. 107-121.

6. Carlyle, T. (2013). On Heroes, Hero-Worship, and the Heroic in History. New Haven and London: Yale University Press.
7. Mirza Ulugh Beg. (1994). *To‘rt ulus tarixi* [History of the four nations]. Tashkent: Chulpan.
8. Mahmud Kashgari. (1960). *Devoni Lug‘otit turk* [Diwan Lughat at-Turk]. In 3 volumes. Vol. 1. Tashkent: Fan.
9. Yusuf Khass Hajib. (2014). *Qutadg‘u bilig* [Kutadgu Bilig]. Tashkent: Bayoz.
10. Alisher Navoi. (2000). *Tarixi mulki Ajam* [History of the kings of Persia]. In: Complete Works. In 20 volumes. Vol. 16. Tashkent: Fan.
11. Zahiruddin Muhammad Babur. (2008). *Boburnoma* [Babur-name]. Tashkent: O‘qituvchi.
12. Zaynuddin Mahmud Vasifi. (1979). *Badoye ul-Vaqoye* [Remarkable of Events]. Tashkent: Literature and Art Publishing House.
13. Abulgazi Bahodir Khan. (1992). *Shajarayi Turk* [Genealogy of the turks]. Tashkent: Chulpan.
14. Turdimov, Sh. (2012). *Etnos va epos* [Ethnos and epos]. Tashkent: Uzbekistan.
15. Quronov, D., Mamajonov, Z., Sheraliyeva, M. (2013). *Adabiyotshunoslik lug‘ati* [Dictionary of Literary Studies]. Tashkent: Akademnashr.

Muallif haqida ma’lumot:
ISMONALIYEVA Mahbuba Jabarali qizi – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Namangan davlat universiteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi. E-mail: ismonaliyeva94@gmail.com